

## Qotil Malika 3-fasl

Muallif:Rameo\_11

Xayotdagi odamlar va boshqalar xam ikki turga bo'linadi.Omadlilar va omadsizlar.Bizning qaxramonlarimizga o'tgan safar omad kulib boqmagandi.Ammo xayot xar bir omadsizga bir marta bo'lsa xam yutish imkonini beradi.

-Aleks askarlarimiz kam yutqazayapmiz-deb baqirdi Kolin qilichini murdadan sug'urib olib

-Bilaman-dedi Aleks qilichlarini tozalab-Ammo....ammo ozodlik uchun kurashish kerak

-Keytni qasosini olmay qo'ymaymiz-dedi uchib kelgan Sara

-Men ularni bitta qo'ymay o'ldiraman-dedi Mira paydo bo'lib

-Unda olg'a-dedi Aleks qarshisidagi Mundoga ishora qilib.Ular Mundoga yaqinlashishgani uning ortida turgan qo'shinga ko'zlari tushdi.

-endi o'ldim deyaveringlar-dedi Mundo tabassum qilib-Sizlarni pashsha o'ldirgandek o'ldiraman-dedi nayzasini qo'liga olib-Xuddi Qora Burgutni o'ldirganim kabi...-demoqchi bo'lganida Aleksning ortidan eshitilgan ovoz ularni xayron qoldirdi

-O'zingni xammadan yuqori olish bu deyarli mag'lubiyat-degan tanish ovoz keldi.Xammaning yuzida xayron belgisi.Barcha ovoz kelgan tomonga qarashdi.Tepalikda bir qiz qo'liga kattakon qilich ushlab turardi.

-Bo'lishi mumkin emas...-dedi Mundo ovozi titrab.

Bundan 5 oy muqaddam

-Demak urush bo'lishi muqarrar-dedi Aleksning otasi Nilfgard qiroli Frederik

-Bizni saroyimizga xujum qilgan iblislardan birining aytishicha shunday-dedi qiroli Edmund qadaxdagi vinodan xo'plab

-Qanday rejalar bor?-dedi Kolinning otasi Wolfgard qirolligi qiroli janob Gats

-Xozircha urush xaqidagi gaplar rostmi yoki yolg'onmi buni aniqlash uchun maxsus guruh ketgan-dedi Edmund xuddi ikki asr qon ichmagan vampirdek qadaxdagi vinodan ichib-Ularni kelishini kutishimiz kerak,bugun kechqurun kelishlari kerak

Bu paytda esa Mira,Sara,Keyt,Aleks va Kolin Shimoliy tog' etaklarida maxluqlar

olami va bu olamni bog'lab turuvchi darvozani izlab yurishgandi.

-Maxalliy axolining aytishicha-dedi Aleks ulkan daraxtdagi izga qarab-BU yerda ulkan maxluqlar yashaydi va ular bu yerni yerdagi jaxannam deb atashar ekan-deb izlarga yaxshilab razm soldi

-Yana maxluqlar bu yerlarni ximoya qilishadi degan gap xam bor-dedi Kolin Aleksning gapiga qo'shimcha qilib

-Nima bo'lganda xam qurollar jangga shay tursin-deb qilichini qo'liga oldi-Nima bo'lishini bilib bo'lmaydi-deb atrofga nazar sola boshladi.Kech tusha boshladi.Quyosh ufqqa bosh qo'yarkan,ajoyib manzara aks etdi.Keyin esa xamma yoqqa tun zulmati cho'kdi.Atrof esa suv quygandek jim jit edi.Xuddi atrofda xech qanday tirik jon yo'q dek

-Eshityapsizlarmi?-dedi Keyt atrofga quloq solib

-Xech narsani eshitmayapman-dedi Aleks atrofga quloq solib-G'alati

-Umuman olganda rostdan xam g'alati-dedi Sara qilichini maxkam ushlab

-Nima demoqchisizlar?-dedi Mira ularning gapiga tushunmay

-Atrofda xattoki bitta xam tirik jon yo'q-dedi Keyt atrofga tikilib-Qushlar sayramayapti,kemiruvchilarning ovozi eshitilmayapti,yana bizning Aleks xam xech narsani eshitmayapti-dedi barchasini sanab o'tib-Bu esa shu yerlik axolining gapida jon borligini isbotlaydi

-Nima deysizlar,agar bu maxluqlarni o'ldirsak-dedi Aleks muzli qilichini paydo qilib-Axoli bizdan rozi bo'lisharmikan?

-Buni xozir ko'ramiz-dedi Keyt unga qarab yaqinlashib kelayotgan sharpaga qarab-Yaqinlashma-deb qilichini o'qtadi.Ammo u yaqinlashib kelaverdi.Ochiqqa chiqqanda esa uning ko'rinishini ko'rish mumkin bo'ldi.

-Panterani eslatib yuborayapti-dedi Sara unga qarab-Faqat oyog'I oltita ekan

-Menimcha ular aytgan maxluqlar shular-deb Keyt qilichidagi chaqmoq bilan unga xujum qildi.

-Qani-deb Mira tezlik bilan boshqalariga xujum qildi.

-Seni qilichingni kuchi menga Dantening qilichini eslatib yuboradi-dedi Keyt unga qarab

-Senikichi?-dedi Keytning ortida paydo bo'lgan Sara

-Yamatoni eslatib yuboradi-dedi Keyt qilichini yelkasiga osib olib

-Yamato?-deb barcha bir ovozdan takrorladi.

-Vergiliyning katanasi-deb Vergiliyning qilichiga shama qildi-Yamato juda o'tkir va juda tez bo'lgan shamol xosil qiladi.Xuddi meni chaqmog'imdek.Sara sening shamshiring xam shunday-deb Saraning qilichiga ishora qildi.

-BUni yana ko'ramiz-dedi Sara xam qilichini yelkasiga osib olib

-Qizlardek qiziq xalq bo'lmasa kerak-dedi Aleks Kolinga qarab

-NImasini aytasan?-dedi Kolin boshini qashib-Uxlagim kelayapti-deb og'zini shunday katta ochdiki,Aleks xam xayron qoldi.

-Menimcha tezroq qaytish kerak-dedi Keyt barchaning toliqqanini ko'rib-Unda qidiruvni tezlashtiramiz-deb iblisga aylanib qanotlarini yozdi va qanot qoqib parvoz qildi.Tog'ning ichiga olib kirib ketuvchi bir g'orni ko'rdi va o'sha tomon ucha boshladi.U yerga yetib kelganida esa darvozani topganiga ishonch xosil qildi.G'or og'ziga qo'nganida esa ichkariga nazar soldi.Odamga aylanib qo'liga qilichini olib atrofga nazar soldi.Deyarli hech kim yo'q.Keyin esa uning ortidan kelgan ovoz uni qo'rqitib yubordi.

-Bu yerlarda bunday go'zal qiz nima qilib yuribdi?-deyishi bilan Keyt qilichini o'sha kimsaning bo'g'ziga tirade-Yana shunday katta qilich bilan-deb qilichni barmog'I bilan o'zidan yiroqlashtirdi.U eski qizil plash kiyib olgan,sochlari



oppoq va ko'ziga ko'zoynak taqib  
olgandi.Ko'zlari xam Keytning nazarida  
kimnikigadir o'xshab ketardi.Xatto  
turishlari va gapirishlari xam

-O'zingiz bu yerda nima qilayapsiz?-dedi  
Keyt unga savol berib-Maxalliy axoli bu  
yerni yerdagi jaxannam deb ataydi axir-  
deb unga qarshi xujumga o'tdi

-O'tin terib yuribman-deb yerda yotgan  
yog'ochni oldi va kulib qo'ydi

-Juda kulgili-dedi Keyt jiddiylikni  
yo'qotmay-Sizga maslahatim bu  
yerlardan keting,yaqinda qirg'inbarot  
boshlanadi-dedi qilichini yelkasidagi  
qiniga solib-Ketish yoki ketmaslik sizni  
ishingiz,men shunchaki ogoxlantirdim-  
deb qanotlarini paydo qilib uchib  
ketdi.Notanish esa uning ortidan qarab  
qoldi.

-Demak Shiratorini topib, iblisga xam aylana olibsanda-deb uning ortidan qarab qoldi-Qachon bunchalik ulg'ayding Keyt-deb yana bir yerda yotgan o'tinni olib sal nariroqda turgan o'tinlariga qo'shib uyiga qarab yo'l oldi.

Keyt notanish bilan bo'lgan suxbatdan so'ng, o'zini g'alati sezib jamoasi oldiga uchdi. Besh daqiqada ularga yetib oldi.

-Nima bo'ldi?-dedi Aleks uni kutib olib-axvoling yaxshimi?-deb u uchun tashvishlandi

-Men darvozani topdim-dedi Keyt g'orni eslab-U yerni topishga topdik, lekin ichkarida nima borligini xech kim bilmaydi.

-Nima qilamiz?-dedi Kolin qilichini qiniga solib, keyin esa boltanisini olib

-Xozir kech tushdi-dedi Sara atrofga qarab-Men ketishni va ertaga kelib g'orni ichini ko'zdan kechirishni maslaxat beraman-deb taklif bildirdi.

-Siyosiy doiralarda ko'p yurganingni bilib olish oson-deb Key uning fikriga qo'shildi.tabiiyki qolganlar xam.edmund va Anna ularni kelishini saroyda sabrsizlik bilan kutib o'tirishardi.Anna esa asabiylashganidan uyoqdan bu yoqqa yurardi.

-Azizam tinchlan-dedi Edmund uni yelkasidan ushlab o'ziga qaratib-Qizing endi juda xam kuchli,unga xech narsa bo'lmaydi-deb uni tinchlantirdi

-Aynan shu narsa meni asabiylashtiryapti-deb Anna xam uning yelkasidan ushlab oldi-O'tgan safar xam u xuddi shunday kuchga ega edi.Ammo

vaqt girdabiga tushib qoldi va ...-deyishi bilan Edmund uni gapini bo'lib qo'ydi

-Xa-deb uni gapini bo'ldi-Ammo endi ular bilan Kolin va Aleks xam bor.Ular xam kuchsizlardan emas-deganidan keyin Anna biroz bo'lsada tinchlandi.

-esingdami 500 yil oldin-dedi Edmund tarixni esga olib-O'shanda Birodarlar safida ekanligimizda,sen Lochinko'z va men Tulki ekanimda-deb kulib qo'ydi.

-O'sha laqabni nega tanlaganingga xali xam uncha tushunmayman-dedi Anna uning yelkasiga bosh qo'yib-Ammo sen bo'lmaganingda sobiq,zolim erim Yo'lbarsni Dorianni to'xtatib qololmagan bo'lardik-deb esladi.

-Ammo u xali xam tirik-dedi Edmund jiddiy tortib-Bilishimcha chegarada oxirgi marta ko'ringan.U uchun esa meni yaxshi rejam bor-deb bilinar bilinmas

jilmayib qo'ydi. Besh daqiqadan esa xonaga eshikni taqillatgancha xizmatkor kirib keldi.

-qirolim, qirolicham-deb bosh egdi-  
Malika keyt va uning jamoasi qaytib kelishdi-deyishi bilan Anna yugurib chiqib ketdi. Edmund esa unga qarab qoldi.

-Xa, ona mehri mana nimalarga qodir ekan-deb jilmayib qo'ydi-  
Lekin xali o'g'limiz bo'lishini mendan yashirayapti-deb kulib uning ortidan yurib ketdi. Zalga kirib borganida esa xamma shu yerda edi.

-Salomatlik tilayman qirol Edmund-dedi  
Keyt bosh egib

-Xey bu yana nimasi?-deb Edmund etiroz bildirdi-  
Sen malikasan, shunday ekan meni shunchaki Edmund deb atashing mumkin va bunday rasmiyatchilikni men juda xam yomon ko'raman-deb unga

ko'z qisib qo'ydi va qirollar yig'ilgan stolga o'tirib barchani o'tirishlariga ishora qildi-Demak boshlaymiz-deb yig'ilishni ochib berdi.

-Xullas nimalarni ko'rdinglar?-dedi qirol Frederik

-Shunday qilib...-deb Keyt bo'lgan barcha voqealarni aytib berdi.Barcha ularning gaplarini oxirigacha eshitdi.

-Ammo bu o'sha darvozami,yoki yo'qmi,xaligacha aniq bilmaymiz-dedi Aleks qo'shimcha qilib-Shunday ekan biz malikalar Sara,Keyt va Mira,shaxzoda Kolin bilan ertasi kuni xam borib g'orni ko'zdan kechirishni rejalashtiryapmiz-deb qirollarga yuzlandi-Bugun borganimizda o'sha yerda ko'plab maxluqlarni ko'rdik,o'sha bo'lishini aniq,ammo tekshirish kerak-deb o'zini stolga tashladi.

-Qarshi emasman-dedi Edmund  
qadaxdagi vinodan xo'plab-Yaxshi  
razvedkasiz,ishonchli malumot olish  
qiyin.Ishonchli malumoting  
yo'qmi,demak sen qanday dushman bilan  
kurashayotganingni bilmaysan-deb  
boshqalarga yuzlandi-Sizlar nima  
deysizlar-deb qolgan qirollardan javob  
kutd

-Men sizni qo'llab quvvatlayman-dedi  
qirol Gats dadillik bilan

-Men xam-dedi qirol Frederik-Aytingchi  
qirol Edmund,qo'shni qirollik Rivendal  
bilan aloqalar qanday ketayapti-dedi  
Edmundga yuzlanib

-Ular bilan aloqa yaxshi-dedi unga  
yuzlanib-Qachonki,urush boshlanganligi  
xaqidagi malumotni eshitishsa albatta  
yordam berishadi-deb ishonch bilan  
gapirdi.

-Sizga ishonaman-dedi qirol Frederik-  
Unda ertagacha-deb majlisni  
tugatishdi.Ertasi kuni esa o'sha jamoa  
yig'ilishib yana o'sha g'or tomon yo'l  
olishdi.G'orga xam 3 soat deganda yetib  
borishdi.Xamma qo'liga qurolini olib  
tayyor turardi.

-Xozir sizlarni qanday xis chulg'ab  
olganini bilaman-dedi Keyt kutilmaganda  
gap boshlab-Oldinlari menda xam xuddi  
shunday bo'lgan,ammo biz xozir  
birgamiz-deb ularni qarshisiga turib oldi-  
Qani olg'a-deb ularni g'or ichiga boshlab  
kirib ketdi.Keytning,Saraning va  
Miraning qilichi bu yer uchun kattalik  
qilardi.Shuning uchun ular xanjarlar  
bilan qurollanishdi.

-Bunchalik qorong'u-dedi Sara  
sharoitdan nolib



-Xoxlasangiz yorug'roq qilishim mumkin-deb Aleks qo'lida olov yoqmoqchi bo'lgani uni Kolin va Keyt bir vaqtda to'xtatib qolishdi. Keyt uni qo'lidan ushlab olgandi.

-Bunday qilma-deb tepaga ishora qildi. U yerda esa ko'rshapalaklar osilib turardi. Ularning o'lchami, oddiy ko'rshapalaklarnikidan ancha farq qilardi. Ular deyarli burgutdek kelishardi.

-Voy lanati-dedi Mira ularga qarab

-Baxtimizga xozir tong vaqti-dedi Kolin pichirlab-Ular bunday vaqtda 7-tushini ko'rishadi, endi esa olg'a-deb yo'lda davom etishdi. G'or yo'laklari tor va zax edi. Ular yana 5 daqiqa yurishganidan so'ng ularning oldilaridan bir darvoza chiqdi. Atrof xam ancha kengaydi. Deyarli qasrning katta bal zalidek joyga aylandi. Ularning qarshisida esa juda xam

nafislik bilan ishlangan darvoza turardi.Unga belgilar o'yib chizilgandi.Darvozaning o'rtasiga esa qadimiy belgilar bilan nimadir o'yib yozilgandi.

-Darvozaga nima yozilgan?-dedi Mira yozuvni ko'rib

-Qadimiy gullar tili?-dedi Kolin xarflarga qarab-Afsuski men ular xaqidagi darslarni xushlamasdim-deb darvozalarga qarab qoldi

-Sendan farqli o'laroq men o'sha darslarni yaxshi o'zlashtirganman-deb Aleks yozuvlarga bir qarab tarjima qilib berdi-Bu darvoza jaxannam va yer o'rtasidagi darvoza.Undan tunda maxluqlar chiqib keladi.Agar uni boshqa ochilmaydigan qilib yopmoqchi bo'lsang,senga afsonaviy qilichlardan biri kerak bo'ladi-deb to'xtab qoldi

-Keyin nima?-dedi Keyt sabri chidamay

-Darvozani u yerini nima qilishgan bilmadim-dedi qirilgan joyiga qarab- Ammo u yerini o'qiy olmadim-deb boshini qashib qo'ydi.

-Yaxshi-dedi Keyt xaritaga qarab joyni belgilab qo'yib. Shu payt darvoza g'ichirlab ochildi. Barcha qo'lga qurolini oldi. Eshik ortidan esa qora plash kiygan, qarashlari yo'lbarsni eslatib yuboradigan odam turardi.

-Bu odam kim?-dedi Sara unga qarab

-Uni odam deyish qiyin-dedi Aleks unga yuzlanib- BU kiyim, birodarlarning sobiq sardori, bu qarashlar va bu rasmdan shuni bilish mumkinki-deb uning plashining qo'lidagi rasmga ishora qildi- Bu Yo'lbars-deb Aleks qo'lida xam muzli xam olovli qilich paydo qildi. Kolin xam qo'lga kattakon qilichini oldi.

-Oo kimlarni ko'rayapman-dedi u o'zini erkin qo'yib-Shahzoda Aleks va Shahzoda Kolin-deb ularga shunday qaradiki,bu qarashdan xamma qo'rqib ketardi-Demak meni unutmabsizlarda-deb qolganlarga xam qaradi-Sizlarni tanimadim,shunday ekan o'zimni tanishtirishga ruxsat bering.Mening ismim Dorian.Men birodarlarning sardoriman-deyishi bilan ALeks qarshi chiqdi

-Sobiq sardori-deb qizishib ketganidan baqirib yubordi

-Tinchlan Aleks-deb uni Keyt yelkasidan ushlab to'xtatib qoldi.

-Seni tanidim-dedi Dorian yuziga tabassum yugurib-Spardaning o'sha mashhur qizi,o'tgan safargi urushda sen sabab mag'lub bo'lgandim-deb nafrat bilan gapira boshladi-Qora burgut-deb

vishillab unga qarshi xujumga o'tdi. Keyt ustidagiplashni yechib tashlab o'sha qotil kiyimiga o'tib oldi. Buni ko'rgan Dorian esa battar g'azablanib ketdi. Uni yiqitib yubordi. Qolganlar yordamga kelayotganini ko'rib ularga qarab baqirdi -Men o'zim-deb uni bog'ishga urinayotgan Dorianni qo'lidan chiqishga urindi.

-Sen birodarlar shaniga dog'san-deb Dorian vishillay boshladi-Sen xatto vampire xam emassan, seni qoning xam toza emas-deganidan keyin Keytning jaxli chiqib ketdi va iblisga aylanib oldi. Iblisga aylanib qanotlari bilan kuchli shamol paydo qildi. Bu shamoldan esa Dorian ancha uzoqqa uchib ketdi.

-Bilasanmi meni kuchim nimada-deb Dorian tezda Keytni yonida paydo bo'lib qoldi-Tezlik, keyin esa-deb uni oyog'idan

ushlab otib yubordi-Va kuch-deb endi unga otilganida Keyt chaqqonlik bilan uning yuziga bor kuchi bilan urdi.

-Bilasanmi meni kuchim nimada?-deb kaftini ochganida qo'liga qilichi uchib yetib keldi-Men burgutman,u esa xech qachon-deb endi o'rnidan turayotgan Dorianga qarata qilichini otib yubordi.Qilich uni ko'ksini teshib chiqdi-Adashmayman-deb Keyt gapini yakunlab qo'ydi.Ammo Dorian kutilmaganda Keytni qilichini ko'ksidan sug'urib tashladi.Jaroxat esa tezda bitib ketdi.

-Demak gaplar to'g'ri bo'lgan ekan-dedi Aleks olovli qilichini jangga shaylab-Uning regeneratsiyasi juda xam kuchli-deb Keytni oldiga turib oldi.Bu paytda u odamga aylanib bo'lgandi.

-Xamma ortga chekinsin-deb Saraga qaradi-Sara seni qilichingni

qobiliyatlaridan biri bu xech narsa o'tkazmaydigan ximoya qobig'i-deb baqirdi.Sara esa qobiq paydo qildi.SHu payt Aleks qilichi yerga sanchdi va tizzalab oldi.

-Meni esa-deb Dorianga qaradi,uning ko'zlarida olov yonardi-Jaxannamdan kuch olaman,mana meni kuchim-deb qilichidan olov chiqarib Dorianga yo'naltirdi.Uning qilichidan shunday darajada olov chiqdiki,ammo Dorian qo'rqmay olov qarshisiga turib oldi.

-Menga bunday olov bilan ziyon yetkaza olmaysan,chunki....-deganidan so'ng olov ichidan chiqib kelgan Dorian yo'talib o'tirib qoldi-Menga nima bo'layapti?-deb Aleksga nafrat ko'zlari bilan qaradi.

-Birovlarni kuchini nazarga ilmaslik-dedi Aleks qilichini Dorianning ko'ksiga

suqishga shaylanib-Bu deyarli mag'lubiyat-deb bu safar qilichida muz paydo qildi.Uning muzidan Dorianning tanasi muzlab qoldi va Aleksning mushtidan so'ng uning tanasi parcha-parcha bo'lib ketdi.

-Sendan aslida qo'rqish kerak oshna-dedi Kolin qilichini qiniga sola turib.

-Endi nima qilamiz?-deyishi bilan eshik ochilib qop-qora kiyingan odam chiqib keldi.

-Kimsan?-dedi Aleks olovli qilichini unga o'qtab

-Mening ismim Leonid-dedi boyagi odam bosh egib.u shunchalik qora rangga burkangandiki xattoki yuzini xam ko'rsatmayotgandi.Ammo barcha unda nimadir borligini sezib bo'lgandi.



-Senga nima kerak?-deb bu safar Keyt gapga aralashdi.

-Men-deb baralla ovozda qo'lidagi qog'ozni o'qiy boshladi-Men iblislar qirolini,sizlarga qarshi urush ochganimni elon qilmoqchiman-deb tugatdi.

-Qoyil tezda maqsadga o'tib qo'yibdi-dedi Sara boyagi yigitga tikilib

-uzr esimdan chiqay debdi-deb ortiga ketayotgan yigit tezda ortiga o'girildi-Qora Burgut siz uchun xam bir gap aytib yuborishimni so'rashgandi-deb Keytga qarab turib oldi-Meni qirolimning aytishicha u sizni zavq bilan o'ldirar ekan-deyishi bilan Aleks qizishib ketdi

-Oldin meni o'ldirishiga to'g'ri keladi-deb boyagi yigitni burdalab tashlamoqchi bo'lgan joyida uni Kolin ushlab to'xtatib qoldi.

-Tinchlan Aleks-dedi Keyt uni oldiga kelib-Chaqiruvingizni qabul qilamiz-dedi Keyt qilichini yelkasiga qo'yib.Boyagi yigit esa tezda ortiga o'girildida ketib qoldi.Barcha ortga qaytib bo'lgan voqeani xammaga aytib berishdi.Barcha o'ylanib turib bir qarorga kelishlari qiyin bo'ldi.

-Demak Dorianni gumdon qilibsizlarda-dedi Edmund kursiga o'zini tashlab

-Umuman olganda xa-dedi Aleks mushtini tugib

-Tinchlaning shahzoda Aleks-dedi Edmund rasmiy uslubda-Lekin endilikda undanda muxim ishimiz bor.Bizni urush kutib turibdi-deb urush so'ziga aloxida urg'u berdi.Barcha yig'ildi va xammasini muhokama qila boshlashdi.Kutilmaganda kelgan xabar esa ularni barini esankiratib qo'ydi.

-Uzr so'rayman-deb xonaga xizmatkor kirib keldi-Ufq tomonda dushman ko'rindi-deyishi bilan barcha xovliga yugurib chiqishdi.Ufq tomonda esa kattagina qo'shin yig'ilgandi.

-Menimcha yordam chaqirishning ayni vaqti-dedi Edmund durbin bilan ancha olisdagi ularning qomondoniga qarab-Voy yaramas-dedi vishillab

-Nima?-dedi Anna uning bunday gapirganiga qiziqib-Men bu yigitni Keyt o'ldirgan deb yurardim-dedi Edmund dushman qomondoni turgan tomonga ishora qilib.

Bundan ancha yillar avval

Katta keng xona,o'rtada esa uncha shoxona bo'lmagan yotoqda go'zal bir qiz uxlab yotardi.Xonaning rangi esa qizlarnikiga xos bo'lmagan tarzda qora rangda edi.Xona pardalari yopiq

bo'lganligi sababli xonaga umuman nur tushmasdi. Xonaga xizmatkor kirib keldi va uxlab yotgan qizni uyg'otishga urinib ko'rdi.

-Malikam turing sizni kutishyapti-deb bosh egib turib oldi. Qiz esa pinagini xam buzmay uxlab yotardi.

-Ex Mariya-dedi xonaga kirib kelgan Sara-Keytni uyg'otishning faqat bitta yo'li bor-deb qo'liga bir kattakon idishni oldi-Faqat keyin senga sal qiyinroq bo'ladi-deb idishdagi suvni uxlab yotgan Keytning ustiga sepib yubordi. Keyt esa suvning sovuqligidan qanday qilib sakrab ketganini bilmay qoldi. Tezda turib atrofga alanglay boshladi. Keyin esa qo'rqib turgan xizmatkorni va kulgidan yorilib ketay degan Sarani ko'rdi.

-Yaramas Sara-deb uni so'kkan bo'ldi

-KO'rdingmi?-dedi Sara Mariyaga qarab-  
Agar uyg'onmasa shu yo'l bilan  
uyg'otsang bo'ladi-deb Keytga qaradi,u  
kiyinish xonasiga kirib ketayotgandi-  
To'xta yordam berib yuboraman-deb  
uning ortidan kirib ketdi

-Mariya sen esa ishingni qilaver-dedi  
Keytning ortidan kirib ketayotib.Mariya  
xonani yig'ishtirib bo'lgunicha Sara  
Keytni shoshiltirib kiyintirdi va yuz  
qo'llarini yuvib stol atrofiga o'tqazishga  
xam ulgurdi.

-salom Sara-dedi kirib kelgan Anna-  
Kiyinishinnga qaraganda bugun xam  
ovinglar bormi deyman-deb savol nazari  
bilan qaradi

-Xa,bugun bir yaramasni ovlashimiz  
kerak edi-deb Keytga qarab gapira  
boshladi-Afsuski meni shu ovga taklif

qilgan odamning o'zi buni unutib qo'ydi-  
deb Keytga qarab tirjayib qo'ydi

-Aytdim nega quyosh buncha erta chiqdi  
deb-dedi Keyt bundan ikki kun oldingi  
gapini eslab

-Sen yaxshilab dam olishing kerak  
dugonajon-dedi Sara o'zini kursiga  
tashlab-Ana undan keyin ishga tushsang  
xam bo'ladi-dedi qadaxdagi ichimlikdan  
bir xo'plab

-Buni o'zim xal qilaman-deb Keyt  
ovqatni paqqos tushira ketdi.

-Qizim senga sovchilar kela boshladi-  
dedi Anna asta-Anteyk qirolligi-deyishi  
bilan Keyt uni gapini bo'lib qo'ydi

-Nima meni gullar yeb qo'yishini  
xoxlaysizmi?-dedi gapni xazilga burishga  
urinib.Asilda xar doim gap to'y xaqida  
ketganida Keyt gapni burardi yoki

umuman oyisining gapini eshitmaslik uchun u yerdan qochib ketardi.

-baribir qachondir uylanishing kerak-dedi oyisi nasixatlarni boshlab.Keytga esa bu yoqmasdi.

-Buni keyinroq maslaxatlashib ko'ramiz-deb o'rnidan turib ketdi-Men ovqatlanib bo'ldim,qachon qaytishimni bilmayman.Xullas ketdik-deb Saraga ishora qilib qilichini olib chiqib ketdi.Anna esa uning ortidan qarab qoldi

-Vaqt qanchalar tez o'tayapti-dedi Anna uning ortidan qarab qolarkan-Kechagini mitti qizaloq eding-deb xotiralarga berildi.

-Salom azizam-dedi uning ortidan kelgan Edmund

-Salom-deb u bilan ko'rishib Anna umuman boshqa mavzularga o'tib

ketdi.Sara bilan Keyt qasrdan chiqishib otda ketisharkan,burilishga yetishganlarida ularni u yerda bir otliq kutib turardi.

-Nega qasrga kirmading?-dedi Keyt uzoqdan baqirib.Otliq esa javob bermasdi-O'lib qoldimi?-dedi o'ziga o'zi

-Umuman olganda u kechasi bilan uxlamagan-dedi Sara unga qarab-Agar u xam senga o'xshab yumshoq o'rinda uxlaganida,bilmadim-deb boshqa gapirmadi.

-Umuman olganda men faqatgina 1 soat uxladim-dedi Keyt o'zini oqlab-Kechasi bilan yugurib chiqqanman-deb xomza tortib qo'ydi

-Salom-deb baqirdi Sara,boyagi otliqni yoniga kelgach.Otliq esa xattoki qimirlamadi xam.



-Unga nima bo'lgan-dedi Keyt otdan tushmay. Boyagi otliq esa asta ko'zlarini ochdi.

-Sizlarni kutib uxlab qolibman-deb kerishib oldi.

-Agar shunday kiyinib yuradigan bo'lsang-dedi ular yo'lga tushishib-Seni xattoki men xam taniymayman Mira-deb Keyt unga suv idishini otdi. Mira undagi suvdan bir xo'plab yana qaytarib berdi.

-Xo'sh bugungi o'ljamiz kim?-dedi Sara o'rmonga kirarkan.

-Darius-degan ismni eshitishi bilan Sara joyida to'xtab qoldi-Nimadir bo'ldimi?-dedi Keyt xayron bo'lib

-Uni men o'ldiraman-dedi Sara g'azabdan vishillab-O'tgan safar barda meni qanchaga tushirganini bilmaysan-deb otni egarini shunday mahkam

ushladiki, bundan uni g'azabda ekanini bilib olish mumkin edi.

-Mayli-dedi Keyt etibor bermay. Ular o'rmon ichida ketishardi. O'rmon bahor faslining o'rtalarida shunday chiroyli bo'ladiki, daraxtlarning yaproqlari ajoyib ko'rinishda bo'ladi. Yo'llarda yam-yashil o'tlar xuddi gilamdek to'shalgan bo'lishi esa kimga xam yoqmaydi deysiz. Ular aynan shunday yo'lda ketishayotganlarida otlariga 3 ta o'q bir vaqtda uchib kelib tegdi. Otlar shu zahoti o'lishdi.

-Zaharli o'qlar-dedi Keyt qilichini qo'lga olib-Menimcha biz yetib keldik-deb jangga shaylandi. Atrofdan jangchilar tushib kela boshlashdi. Ular esa o'rtada kurashishardi. Keyt qilichida chaqmoq paydo qilib uni askarlarga yo'naltirdi. Shu payt uning bo'yniga igna kelib

sanchildi. Keyin esa ko'zlari xiralasha boshladi.

-Xo'sh-xo'sh xo'sh-dedi tepadan tushib kelgan Darius. U bir ko'ziga bog'ich bog'lab olgandi. Sochlari kalta, yuzi esa chandiqlarga to'la edi

-Kimlarni ko'rayapman-deb cho'zib talaffuz qilardi-Qora burgut, Qizil Lochin-deb jim bo'lib qoldi va yonida turgan ko'rinmas Mirani ushlab ularni yoniga uloqtirib yubordi-Sharpa-deb so'zini yakunlab qo'ydi.

-seni o'ldiraman-dedi Keyt ko'zlari xiralashgan bo'lsa xam qilichini mahkam ushlab. Darius bunga yo'l qo'ymay uni tepib yubordi. Qolganlarga xam shu ignadan otilgandi.

-Xo'sh-dedi Darius xanjarini Keytning yuziga yaqin olib kelib-Shunday chiroyli yuzni bejab qo'ysam nima bo'lar ekan-

deb yuzini ozroq kesdi. Kesilgan joydan esa qon sizib chiqdi. Ozgina vaqt o'tganidan so'ng esa jarohat bitib ketadi deb o'ylashgandi. Ammo jarohat bitmadi.

-Nimalar bo'layapti-dedi Keyt xayron bo'lib-Jarohat nega bitmayapti-deb qo'rquvga tusha boshladi.

-Bu senga bergan zaharning tasiri-dedi Darius zaharhanda jilmayib-unga meni sehrim qo'shilgan. Seni sehringni kesib qo'yadi. endi esa...-deb xanjarni baland ko'targanida Keytning qornidan Saraning qilichi teshib chiqdi. Darius esa xayron edi.

-bu yana nimasi?-dedi u xayron qolib. Shu payt kutilmaganda uning yuziga musht kelib tushdi.

-Ana endi boshlaymiz-dedi Keyt va kaftini yozganida qilichi qo'lga uchib

keldi. Chaqmoq bilan askarlarni uchirib yubordi. Bazilarning tanalari kuyib ketdi.

-Bu yana nimasi?-dedi Dariusni qo'rquvni bosib-Qanday qilib.

-Meni qilichimni kuchlaridan biri-dedi Sara o'ziga sanchgan qilichini tanasidan sug'urib olib-Boshqa afsunlarni va afsun aralashgan dorilarni kuchini kesish-deb Mirani xam ozod qildi.

-Endi esa sen tamomsan-deb Keyt unga xujumga o'tdi. Qilichida chaqmoq xosil qilib to'qnashdi. Natijada Darius ancha olisga uchib ketdi va daraxtga borib urildi.

-U seniki-dedi Keyt qilichini yelkasiga osib olib. Sara shoshilmasdan borib uni boshini chopib tashladi

Xozirgi payt

Keytning ko'z o'ngidan barchasi xuddi kino tasmasidek bo'lib o'tdi. Keyin esa o'zini qo'lga oldi. Keyin esa Mira va Saraga xam qaradi. Ularda xam shu axvol takrorlangandi.

-Bilasizmi Edmund-dedi Keyt qilichini qo'lga olib-Eng yaxshi ximoya xujum deyishadi-deb qasr devorlaridan qo'rqmay sakradi. BU esa xammani xayron qoldirdi.

-Sizlar ximoyada qoling-dedi tepaga qarab baqirar ekan-Men esa u bilan xisob kitobni yopaman-deb Shiratorini olib ular tomonga qarab keta boshladi. Mira va Sara xam uning ortidan qarab qolishmadi.

-Nima bo'lganda xam dugonam-deb Sara xam uning ortidan sakradi. Mira esa ularga ergashdi. Aleks va Kolin xam ularga ergashishdi. Qolganlar esa qasr

devorlariga yig'ilishdi. Barcha ularning jangini ko'rishga ishtiyoqman edilar.

-Qani qizlar-dedi Keyt qilichini qo'liga olar ekan-Men ishni chala qolishini yomon ko'raman, kelinglar yakunlaymiz-dedi tanasi atrofida chaqmoq xosil qilib

-Roziman-dedi ular bir ovozdan. Miraning tanasi xuddi tumanga o'xshab qoldi. Saraning tanasidan esa ignalar o'sib chiqa boshladi.

-Men boshlayman-dedi Keyt oldinga o'tib. Uning kiyimlari o'zgarib, jang uchun qulay bo'lgan sovutlarga aylandi. Uning atrofidagi chaqmoq kuchaya boshladi. U qilichini osmonga ko'tardi. Ammo Darius askarlarning bariga xujumga o'tishni buyurdi. Keyt esa chaqmoqni yanada kuchaytirdi. Buni ko'rgan qirollik askarlari va boshqa qirollar xayratda edilar.

-Iblis chaqmog'i-deb qilichida chaqmoqni nazorat qilib raqib askarlariga yo'naltirdi.Ularning bari chaqmoq zarbidan kuyib ketishdi.Dariusning askarlari orasida qo'rquv ildiz ota boshladi.Endi xujumga Sara o'tdi.U qilichida va o'z tanasida ignalar xosil qilib o'zini askarlar orasiga urdi.Uning qilichi tekkan barcha o'la boshladi.Mira esa undan qolgan askarlarni gumdon qilish bilan ovora edi.Bu voqeani esa uzoqroqdan Kolin bilan Aleks kuzatib turishardi.

-Aleks-dedi Kolin ularga qarab-Men endi xech qachon qizlar bilan xazillashmayman-dedi ulardan ko'zini uzmay

-Menimcha onam endi Keyt uchun kurasha boshlaydi-dedi Aleks ortiga qarab qo'yib-Anchadan beri kelin topa



olmay yurgandi-deb boshini qashib  
qo'ydi-Kel xech bo'lmasa anovini  
o'ldiramiz-dedi qochayotgan Dariusga  
ishora qilib

-Men birinchi-deb Kolin bo'riga aylanib  
yugurib ketdi.

-Doimgidek shoshqaloq-deb Aleks bor  
kuchini oyoqlariga berib yugura  
boshladi.U bir necha soniyalarda Kolinga  
yetib oldi.Ular tengma teng yugurib  
borishardi.

-U meniki-deb Aleks qo'lida muzli  
xanjarlar xosil qilib ular Dariusga  
yo'naltirdi.Xanjarlaridan biri uning otiga  
tegdi.Ot yiqilib tushdi,u bilan birga  
Darius xam.

-Ooo buni qaranglar-dedi Darius ularga  
tirjayib qarab-Shahzoda Aleks va  
Kolin,xo'sh arshi aloqa ketishga  
tayyormisizlar-deb qilichlarini shayladi.

-Faqat sendan keyin-dedi Aleks qo'lida olovli va muzli qilichlarini paydo qilib.Kolin esa javoban irillab qo'ydi.Ular jangga kirishdi.Darius ularga jarohat yetkaza olamayotgandi.Kolin va Aleks bir vaqtda zarba berib uni besh qadam nariga uchirib yuborishdi.Kolin esa shoshqaloqlik qilib uni o'ldirmoqchi bo'ldi.Ammo xanjariga tutilib qoldi.Uning xanjaridagi zahar Kolinning tanasiga yoyildi.Aleks esa Kolin bilan ovora bo'layotganida Darius vaqtdan foydalanib xanjarini unga xam sanchib oldi.Endi qochib ketayotganida esa iblis qiyofasidagi Key uning oldiga kelib tezlikda qo'ndi.Darius buni kutmagani uchun shoshib qoldi.Uning ortidan esa Sara va Mira xam yetib keldi.

-Men ularni davolayman-dedi Sara qilichini shaylab-Biroz og'riydi-dedi va

qilichini Kolinning tanasiga sanchib oldi. Keyin esa Aleksni xam tuzatdi.

-Buni qaranglar-dedi Keyt o'z xoliga qaytib-Bu bo'layotgan voqealar menga nimanidir eslatib yuborayapti-dedi va Saraga qaradi. Sara esa uning qarashini tezda tushundi.

-Xa-deb a xarfini cho'zib talaffuz qildi- Ancha yillar oldingi uchrashuv, xuddi shu uchlik-deb kulib qo'ydi.

-Dejavyu-dedi dariusning ortida paydo bo'lgan Mira. Darius cho'chib tushish o'rniga Miraga xanjar sanchishga urindi. Ammo uning qo'li Miraning tanasidan shunchaki o'tib ketdi.

-Og'ridi-dedi Mira yuzini burishtirib, keyin esa Dariusning burniga yaxshilab tushirdi-Xazillashdim-deb qizlar uning atrofini o'rab olishdi.

-Bu safar o'zim bajarman-dedi Keyt Shiratorini qo'liga olib-Kelgan jahannaminga qaytib ket-deb chaqmoq bilan uning tanasini kuydirib tashladi.Keyin esa uning o'lganiga ishonch xosil qilishgach yigitlar bilan ortga qaytishdi.

-G'alati-dedi Keyt shubhalanib

-Nima?-dedi Sara tushunmay-Darius o'ldi-deganidan keyin Keyt fikrini aytdi

-SHunisi g'alati-dedi darvozalardan ichkariga kirar ekan-Darius bunchalik tez mag'lub bo'ladiganlardan emasdi,bu yerda bir gap bor-dedi shubhalanib.Ular qasrga qaytishdi.Barcha qirolliklarga choparlar yuborishdi.Kechga yaqin ulardan xabar keldi.

-Bilishimizcha barcha qirolliklarga birdek xujum qilingan-dedi qirol Edmund xatni o'qib bo'lib-Qandaydir

jarayon ketayapti-dedi Edmund boshini quyi solib

-Darius bir tiyinga qimmat qo'rqqoq edi-gap boshladi Keyt-Biz kurashgan iblislar qo'shini esa o'ta kuchli edi

-Bu bilan nima demoqchisan?-oydinlik kiritmoqchi bo'ldi Anna

-Menimcha ular shunchaki razvedka qilishdi-gapni ilib ketdi Sara-Eng birinchi qaysi qirollik kuchsiz ekanini bilishadi,keyin esa osonidan qiyinigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishadi-deb gapini yakunladi.

-Demak ular allaqachon boshlashdi-dedi Aleks barchasini tushunib

-Menda bir reja bor-dedi Keyt,xammaning ko'zi unda edi-Birlashish kerak,xuddi bir necha ming

yillar oldingidek-deb fikrini xammaga aytdi.

-Buni oson deb o'ylaysanmi?-dedi Edmund taxtiga o'tirib-Buning uchun ular oldin oldilarida kim turganini tushunishlari kerak-dedi u bosiqlik bilan

-Bilishimcha oldinlari katta majlis bo'lardi-dedi Keyt eslashga urinib-O'sha majlisni chaqirsak va ularga kim xavf solayotganini ko'rsatsakchi?-deb yana taklif bildirdi.

-Menimcha,menda g'oya tug'ildi-dedi Edmund sirli jilmayib.Edmund doimo rejalar ustasi bo'lgan.OLDinlari birodarlar doimo u tuzgan rejalar bilan ishlashgan.Xatto bir marta butun bir tish-tirnog'igacha qurollangan askarlar orasidan o'lim tumorini sog' omon uning rejasi yordamida olib chiqib ketishgan degan gaplar yuradi.Shunday qilib ular

reja tuzib olishdi. Endi esa eng asosiysi majlis uchun bahona kerak edi.

-Menda ajoyib fikr bor-dedi Aleks Keytga qarab jilmayib. Keyt uning fikrini tezda tushundi.

-Ishonchingiz komilmi shahzoda Aleks-dedi uning ortiga o'tib yelkalarini qattiqroq siqib

-ALbatta malikam-dedi Aleks burishib ketayotgan yuzini xech kimga ko'rsatmaslikka urinib. Bir kechaning o'zida bir necha qirollik vakillari yig'ilishdi. Bir necha kuchli qirollik qirollari yig'ilishgandi. Ular taxt xonasidagi dumaloq stol atrofida o'tirishar ekan, barcha nima bo'lishini o'ylab o'tirar edi.

-Aytishlaricha shahzoda Aleks va qirol Edmundning tutungan qizi malika Keyt

turmush qurayotgan emush-dedi  
qirollardan biri.

-Men malika Keytni taniyman-dedi  
boshqa qirol-U rostdan xam qaytdimi,uni  
o'lganligi xaqidagi xabarlar bundan bir  
necha asr oldin tarqab ketgandi.

-Demak yolg'on ekan-deb ichkariga qizil  
uzun libosda,sochlarini yoyib olgan Keyt  
kirib keldi-Sizlarni o'z qirolligimizda  
ko'rganimizdan bag'oyatda xursandmiz-  
dedi Keyt rasmiyatchilikni qo'ldan boy  
bermay.

-Barcha alangali salomlar-deb uning  
ortidan qora libosga burkangan Aleks  
xam kirib keldi.Barcha ularni ko'rib  
xayron qolishdi.

-Xullas-deb qirollardan biri gap  
boshlamoqchi bo'lgan edi qasr oynalari  
sinib ichkariga 2 iblis kirib keldi.Ular  
Sara va Mira edi.Edmund tuzgan rejaga



ko'ra ular qirollarni qo'rqitib qo'yishlari kerak edi. Barchasi xuddi u aytgandek bo'ldi. Qirollar bir nechtasi jangga otildi. Mira tumandek yo'q bo'lib, ularning ortida paydo bo'ldi va ularni urib uchirib yubordi. Sara esa ignalar bilan ularni shol qilib qo'ydi. Keyin esa ular o'z xollariga qaytishdi.

-Xullas-dedi Keyt ularni atrofida aylanar ekan-Aslida bizni maqsad sulh tuzishdan iborat edi.

-Sizlar qarshingizda qanday raqiblar turganini ko'rdingiz-dedi Sara gap boshlab-Ularning bazilari bizdanda kuchli, ular bizni bo'lib yuborishadi va birma-bir bosib olishadi-deb gapini tugatdi.

-Xatto askarlaringiz xam qarshilik qila olmadi-dedi Mira qilichini tozalab-Endi

ular qanday qilib butun qo'shiningizni qirayotganini ko'z oldingizga keltirib deb yana qilichini tozalashga tushib ketdi.

-Biz ular bilan deyarli xal qiluvchi jangda birga kurashishimiz kerak-dedi ichkariga kirib kelgan Edmund. Qirollar xali umuman gapira olmasdilar xam. Chunki xozirgi bo'lgan voqealarni xazm qilib ulgurishmagandi. Edmundning bir ikki gapirishi bilan barchasi xal bo'ldi. Ular rozilik berishdi. Ular endi tarqalmoqchi bo'lishgandi ichkariga xizmatkorlardan biri kirib keldi.

-Qirolim ichkariga bir elchi kirmoqchi-dedi ovozi qaltirab

-Kirsin-dedi Edmund jiddiylik bilan. Ichkariga Keyt, Sara va boshqa jamoa azolariga tanish bo'lgan Leonid kirib keldi.

-Salomatlik tilayman ulug' hukumdorlar-dedi Leonid xuddi robotdek gapirib,u doimo bir to'nda gapirishi robotni eslatib yuborardi-Men qirolimdan sizlarga noma keltirdim-deb qo'lidagi xatni ochdi.

-Kim u?-dedi Edmund ovozini biroz ko'tarib

-Uning ismi Leonid-dedi Keyt oldinga chiqib,xar ehtimolga qarshi qilichini xam qo'liga oldi-U iblislar qirolu Mundoning elchisi-deb uni tanitdi.

-Marhamatingizni cheki yo'q malikam-deb Leonid bosh egib qo'ydi-Men iblislar qirolu Mundo,sizlarga qarshi 2 kundan so'ng tongda janubiy ochiq yalanglikda o'zim ishongan qomondonim bilan qo'shin yuboraman-deb xatni yana o'ray boshladi.

-Doimgidek tezda maqsadga o'tgan-dedi Sara stulga o'tirib olib-Demak 2 kun vaqt-deb qo'shimcha qildi.

-Agar qirolimga aytadigan gapingiz bo'lsa men yetkazib qo'yaman-dedi Leonid ketish oldidan barchaga qarab.Xamma jim edi.

-Unda yaxshi qolinglar-deb sekin yurib qanday kelgan bo'lsa,shunday ketdi.

-U jinnimi?-dedi boshqa qirollar uni qanday gapirishi va ishlashini ko'rib

-Yo'q shunchaki o'z ishining ustasi-dedi Keyt chiqib ketishga shaylanib.Barcha tarqala boshladi.Keyt zinadan etagini ko'tarib endi chiqayotgan edi,etagini bosib oldi va to'g'ri ortida turgan Aleksni qo'llariga borib tushdi.Ularning nigohlari to'qnashdi.Bu xol bir necha soniya davom etdi.Ammo ikki qalb egasi bu daqiqalar tugamasligini xoxlashardi.

-Balki qo'yib yuborarsiz-dedi Keyt uning qo'llariga ishora qilib. Aleks uni qo'yib yubordi. Keyt endi tezlik bilan zinalardan chiqib ketayotgandu. U yuragi buyurgan ishni qilayotgandi. Yuragi unga qochishni buyurgandi. Keyt xech qachon xech kim bilan bunchalik yaqinlikda bo'lmagandi.

-Keyt-deb baqirdi Aleks uning ortidan, ammo Keyt ortiga burilmadi xam-Bugun ochilib ketibsiz demoqchi edim-dedi xomush tortib. Shu payt Kolin kelib qoldi.

-Nega suvga tushgan mushukdek turibsiz-dedi kelib uni yelkasidan turtib.

-Shunchaki landavurligim alam qilayapti-dedi Aleks Kolin bilan birga yurib-Bilasizmi men bugun bir narsani tushundim

-Nimani?-dedi Kolin undan qolib ketmay

-Qizlarga gapirishdan ko'ra-dedi Aleks stol ustida turgan qadaxni olib-Borib tog'ni talqon qilgan oson ekan-deb qadaxni bo'shatdi.

-Men buni allaqachon tushunganmandedi Kolin Aleksga sherik bo'lib-Qachonki Sarani ko'rganimda-deb javobini o'zi aytdi va ikki do'st bir biri uchun qadax ko'tarishdi.SHunday qilib ular ikki kun ichida urushga tayyorlana boshlashdi.Ularga yetib kelgan malumotlarga ko'ra urushga Mundoning qomondonlaridan biri Rebilion boshchilik qiladigan bo'ldi.Keyt uning ismini eshitib yana ko'z oldida xotiralar jonlandi.U bir odamni atrofida aylanib yurardi.

-Rebi amaki-derdi Keyt uni atrofida aylanib

-Keyt qizalog'im bo'ldi-deb bir tanish ovoz keldi.Keyt uning yuziga qaramoqchi bo'ldi.Ammo bo'lmadi.

-Rebillion amakingni boshini aylantirib yuborasan,o'zi uni bu yerga kelganini bilishsa axvoli tang bo'ladi-dedi u kulib

-Xavotirlanman Sparda-Keyt uning kimligini tushundi.Demak o'sha tanish ovoz bu uning otasi.

Keyt yana xozirgi vaqtga qaytdi.Barcha jangga shay edi.Bir necha qirollik qo'shinlari yalanglikda kurashadigan bo'ldi.Qolganlari esa mudofani ushlashi kerak edi.Qo'shinlar o'sha kuni yalanglikka yaqin joyda chodirlar qurishdi.Kech tushdi.Keyt esa tepalikda askarlarga qarab o'tirardi.Aleks kelganini esa sezmay qoldi.

-Nimalarni xayol qilib o'tiribsan?-dedi uning yoniga o'tirib

-Ularni ko'ryapsanmi?-dedi Keyt o'ychan askarlarga ishora qilib-Ertaga kimdir uyiga qayta olmaydi,xatto bu men xam bo'lishim mumkin-dedi g'amgin ovozda.Aleks chiday olmadi va uni quchoqlab oldi.

-Unday dema-dedi uni quchoqlab olgan ekan-Ertaga barchasi yaxshi bo'ladi-deb uni quchog'idan bo'shatdi.Keytni ko'zida yosh bor edi.Erta tongda barcha sovutlarini kiyib qurollanib jangga shay turishdi.Keyt,Aleks,Kolin va boshqalar qo'shin oldida otda turishardi.Jang rejasiga ko'ra jangni otliq suvoriylar boshlab berishi kerak edi.Keyin esa piyoda qo'shinlar xujumga o'tishi kerak.Piyodalar ichida vampirlar,bo'rilar,gullar va yana turli xil xalqlar jamlangandi.Ufqda dushman qo'shinlari ko'rindi.Orada masofa 100



metr qoldi. Ulardan 2 otliq oldinga chiqib kela boshladi. Ulardan biri qizil sovutda, ikkinchisi esa qora sovutda edi. Keytga qora sovutdagi jangchi tanish tuyuldi. Keyin esa xotiralariga tayanib uni Rebilion ekanini tushundi.

-Borish kerak-dedi Aleks otini niqtab- Qadimiy urf odatlar shunaqa-deb yurib ketdi. Qolganlar xam unga ergashishdi. Ular ikki qo'shin o'rtasida bir birlari bilan to'qnashishdi. Xamma bir biriga qarab turardi.

-Salomlar bo'lsin, xonimlar va janoblar-dedi qora sovutdagi ritsar dubulg'asini yechib.

-Bu aniq Rebilion-o'yladi Keyt. Aleks endi gapirmoqchi bo'lgan edi, Keyt gap boshlab ketdi.

-Salomlar bo'lsin ser Rebilion-deb Keyt xam dubulg'asini yechdi.

-Sizni tirik deb o'ylamagandik Keyt Sparda qizi-dedi uning sherigi.Uning ovozidan asabiy ekanligi bilinib turardi.

-Asabiylashma Serber-dedi Rebilion bosiqlikni yo'qotmay-Maqsad sizlarga taslim bo'linglar demoqchi edik-deb Rebilion jilmaydi.Uning sovuq jilmayishi barchani qo'rqitsa qo'rqitdi.Ammo Keytni tuki xam qimirlamadi.

-Biz xam shuni aytmoqchi edik-dedi Aleks tilga kirib.

-Unday bo'lsa,fikrlarimiz bir joydan chiqibdi-dedi Rebilion ortiga o'girilib-Demak jang,so'z beraman qiynamay o'ldiraman-dedi keta turib

-Men esa sizni o'zim o'ldirishga so'z beraman-dedi Keyt sovuqqon oxangda.Barcha ortiga qaytdi.

-Foydasiz-dedi Kolin qilichlarini shaylab

-Buni ko'ramiz-dedi ALeks tepalikka qarab-Qadimiy urf odatlarga ko'ra burg'u chalinishi kerak-dedi ovozni kutib.Jang maydonida jimlik xukm sura boshladi.Xuddi to'fondan oldingi asabni o'ynaydigan jimlik.Barchaning asablari taranglasha boshladi.Shu onda burg'uning jarangdor ovozi eshitildi.Osmonda esa qaqnus qushi paydo bo'ldi.

-Men oldin nima deganman bilmayman-dedi Keyt oldinga chiqib askarlarga qarab baqirar ekan-Lekin bu urush biz uchun emas,kelajak uchun.Biz o'zimizdan keying avlodlarimiz qul bo'lmasligi uchun kurashamiz.Men sizlarga vada beraman.So'nggi qonim qolguncha kurashaman-deb qilichini yelkasidan olib tepaga ko'tardi-Kelajak uchun-deb baqirdi.Barcha unga jo'r

bo'ldi. Qaqnus qushi osmonda yonib ketgach jang boshlandi. 5 soniyada ikki qo'shin bir biri bilan to'qnashdi. Keyt boshchilik qilayotgan qo'shin deyarlig'alabaga erisha boshladi. Ammo shu paytda Rebilion va sherigi Serber boshchiligidagi qo'shin xam jangga kirdi. Bu qo'shinning jangga kirishi ishlarni sal qiyinlashtirdi. Ammo Keyt chaqmoq xosil qilib ishora bergach ularning zaxiradagi qo'shini xam jangga kirdi. BU ularni imkoniyatini ozginaga oshirdi. Ammo Rebilion va Serber bir urinishda minglab askarlarni yo'q qilib yubora olardi. Keyt jang maydonidagi askarlarga qaradi. Barcha bir birini o'ldirardi. Keytda ushbu qirg'in barotni to'xtatish istagi uyg'ondi. U tavakkal qildi. Iblisga aylandi va osmonga ko'tarilib chaqmoqni kuchaytirib eng yuqori cho'qqisiga ko'tardi. Uning

tanasini chaqmoq o'rab olgandi.U chaqmoqni iblis qo'shinlariga yo'naltirdi.Ularning bari uning chaqmoq zarbidan kuyib ketishdi.Keytni ortidan Serber xujum qilib qoldi.Ammo Keyt tezlik bilan chap berdi.Serber uni jang maydonidan siqib chiqarayotgan edi.Unga Rebilion xam qo'shildi.Ular bir o'rmonga borib qolishdi.BU o'ylangani aniq edi.Ular yerga qo'nishdi.Atrofni esa iblis askarlari o'rab olishdi.

-O'zimiz-dedi Serber unga tashlanib.Keyt chap berib qoldi.U bilan jangi uzoqqa bormadi.Ammo kuchli jarohat oldi.Qilichiga suyanib zo'rg'a turardi.Lekin oyoqda tura olmay qulab tushdi.Uni o'ldirmoqchi bo'lgan Serber qilichini ko'targan edi uning boshiga bir uzun tayoq kelib urildi va boshini uzib yubordi.

-Buni qaranglar-dedi tanish ovoz,barcha ovoz kelgan tomonga qarashdi-Qiz bolani xafa qilish yaxshimas-dedi u sochlarini silab qo'yib.O'sha qizilplash,shim va ko'zdagi ko'zoynak.Bu o'sha Keyt darvoza oldida uchratgan notanish edi.Keyt endi esladi uni kimga o'xshashini.

-Kimlarni ko'rayapman-dedi Rebilion qilichini ko'tarib-BU axir oshna-dedi u kulib

-Ortga-dedi Keyt baqirib qilichiga suyanib o'rnidan turar ekan

-Sen meni eslay olasanmi Kettiy-dedi Rebilion unga jilmayib qarab

-Albatta Rebi amaki-deyishi bilan notanish qo'l uning yelkasidan ushlaganini xis qildi.

-Dam ol qizim-dedi u mehribonlik bilan.

-Kimsiz?-deb unga qaragan edi,ko'z oldidan xotiralar o'ta boshladi.Bu aniq uning otasi edi.O'sha mashhur barcha taniydigan Sparda.Afsonaviy qora ritsar.Keyt barini aynan shu lahzada esladi.

-Xo'sh Shiratori-dedi u qilichga qo'lini cho'zib.Qilich uning qo'liga uchib keldi.

-Meni unutmadingmi oshna-dedi u kulib.Qilichda esa chaqmoq xosil bo'ldi.

-Demak yo'q-dedi u kulib-Rebillion ortga-dedi u iblis askarlarni oldiga chiqar ekan.Keyt ko'z ochib yumguncha ularni qirib tashladi.Keyt o'zini ushlab tura olmay xushidan ketdi.

-Qizaloq xushidan ketdi-dedi Rebellion qilichini yelkasidagi qiniga joylab.

-Senga rahmat oshna-dedi Sparda Keytni oldiga kelar ekan

-Ey rahmat bilan ish bitmaydi-dedi  
Rebillion uni oldini to'sib-Agar men bu  
axvolda uni oldiga borsam u meni  
o'ldiradi-dedi u o'ziga ishora qilib

-Xo'sh unda jim tur-dedi Sparda  
Shiratorini ushlab-Xo'sh qorin,oyoq va  
qo'llar-dedi unga qarab

-Bilasan....-deyishi bilan Sparda sanab  
o'tgan azolariga qilich suqib  
oldi.Rebillion esa yerga quladi.

-O'lmayman-dedi u osmonga qarab yotib  
olib-Keytni qutqar,agar u seni tirik  
ekaningni bilsa ishimiz chatoq-dedi iloji  
boricha dona dona qilib gapirib.

-Rahmat senga ukajon-dedi Sparda  
Keytni ko'tarib olar ekan.

-xali seni oldingda qancha qarzim bor-  
dedi Rebellion so'zlarni cho'zib talaffuz  
qilib



Jang maydoni. Keyt g'oyib bo'lgach iblislar kuchsizlana boshlashdi. Aksiga olib Rebilion va Serber xam yo'q. Sara va Mira vaqtdan foydalanib jangga kirishdi. Ular iblisga aylanishdi va bir necha minglab iblislarni qirib tashlashdi. Ushbu qirg'in jang avjiga chiqqanida esa iblislar chekina boshlashdi. Jangdan so'ng esa ikki tomon jang maydonini ko'zdan kechira boshladi.

-Sara Keyt qani-dedi Aleks undan so'rab-  
Uni topa olmayapman-dedi qo'rqib

-Janoblar-osmondan yo'g'on ovoz  
keldi. Barcha o'sha tomonga qaradi. Bu  
Mundo edi.

-Sizlarga Qora BUrgut o'lganini malum  
qilaman-dedi kulib. Aleks bu so'zlarga  
ishonmadi. G'azabi qaynay  
boshladi. Tanasi atrofida esa olov paydo

bo'la boshladi. Ammo Kolin uni boshiga qilichi bilan urib xushsizlantirdi.

-Nega bunday qilding?-dedi Sara baqirib yuborib

-Chunki u g'azabga berilsa barchamizni arshi aloqa yubora oladi, xatto seni Kuching xam uni to'xtatishga yetmaydi-dedi Kolin Aleksni oyog'idan sudrab. Keyin esa Saraning niqtashi bilan yelkasiga ortib oldi. Ular qasrga qaytishdi. Barcha ulardan yangilik kutar edi.

-Keyt xaqida xech qanday yangilik yo'q-dedi Sara boshini quyi solib. Anna yig'lab yubordi. Edmund esa uni ovuta boshladi.

-Keyt tirik bo'lishi mumkin-dedi zalga kirib kelgan gullar vakili Feya. U qizil sochli, ko'zlari xam qizil tanasi esa bug'doy rang edi. Deyarli modellardek chiroyli edi.

-Qanday qilib-dedi Aleks boshiga muzli qo'lini bosib-U rostan xam tirikmi?-dedi unga najot ko'zlari bilan boqib

-Jang payti uni o'rmongacha siqib borishdi-dedi u xisobot berib-U yerda esa men juda xam katta kuchni xis qildim.U yerda bir qancha iblislar yig'ilgandi.Lekin kuch ularniki emasdi.Uning kuchi xuddi iblislar qirolinikidek edi.Keytning belgilari esa u kelgach yo'qoldi-deganidan so'ng Anna yig'lashdan to'xtab bir nuqtaga tikilib qoldi.

-Nahotki u qaytdi-dedi pichirlab.Lekin uni barcha eshitgandi.

-BU kim edi?-dedi Kolin Annaga yuzlanib.Ammo deyarli barcha uni kimligini bilgandi.

-Sparda-uning bir og'iz so'zidan keyin barchani titroq bosdi-Menimcha ular bir

narsani o'ylab qo'yishgandi.Chunki Rebilion va Sparda deyarli aka-ukalar edi.Rebilion xech qachon Spardaga xiyonat qilmagan-dedi Anna barcha tahminlarini aytib

-Demak Keyt tirik-dedi Aleks yengil tin olib

-U tirik-dedi Anna-Ammo yengil nafas olishga xali erta.Rebilionni nima qilishini bilib bo'lmaydi.

-Unda mudofaga o'tamiz-dedi Edmund reja tuzishga kirishib

Qorong'ulik.Barcha ko'zlarini ochishdan oldin qorong'ulikni ko'radi.Ammo Keyt ko'zlarini ochganda xam qorong'ulikni ko'rgandi.Atrofda esa faqat bittagini sham yoniq turardi.Ichkariga o'sha notanish,aniqrog'I uning otasi Sparda kirib keldi.Qo'lida bir idishda qandaydir suyuqlik bor edi.Iblislar oddiy yaralardan

o'lmaydi. Ammo kuchli qilichlar bergan yaralardan o'lishadi. Regeneratsiya esa sekin yuz beradi.

-Mana buni ich-dedi Keytga suyuqlikni ichirib-Tuzalib ketasan oppog'im-dedi unga mehribonlik bilan. Keyt eslaydi. Dadasi uni aynan shunday chaqirganini eslaydi. Uni xatto 15 yoshigacha shunday chaqirgandi. Keytni ko'zlariga beihtiyor yosh keldi.

-Dada-deya oldi zo'rg'a. U bu so'zlarni aytishni necha yillar kutdi. Yetimhonada u ko'chada ota-onasi bilan yurgan bolalarga qarab orzu qilardi. Maktabga chiqqanidan keyin xam orzu qilishni to'xtatmadi. Keyin esa o'sha voqealar sodir bo'ldi. U qotillik qilishni o'rgandi. BU u uchun odaditiy xol tusiga kirdi. Ammo unga omad kuldi va onasini topdi. endi esa uning tepasida dadasi unga

qarab kulib turardi.Ota va qiz topishgandi.Keyt bu lahzalar uchun taqdiridan minnatdor edi.

-Bo'ldi,xammasi yaxshi bo'ladi-deb uni boshini tizzasiga qo'ydi.Keyt esa shu axvolda uyquga ketdi.Sparda esa qizining sochlaridan silab o'tirardi.

-Seni sog'indim qizalog'im-dedi pichirlab.Keyin esa ko'zidan oqqan bir tomchi yoshni artib tashladi.Keyt bir necha soat uxlagandan so'ng o'ziga keldi.Ko'zlarini ochib atrofga qaradi.

-Dada-deb otasini chaqirdi.BU tush emasligiga o'zini ishontirmoqchi bo'ldi.Keyin esa jarohatiga qaradi.Bog'ichni yechib tashladi.Jarohatdan asar xam yo'q.Keyin esa o'ylay boshladi.Xayoliga nimalar kelmadi.

-Dada-deb yana bir marta chaqirdi. Keyin esa plashini kiyib tashqariga chiqdi. U o'rmondagi g'orlardan birida edi. Tashqariga chiqishi bilan osmonda uchayotgan samolyotga ko'zi tushdi va qayerdaligini tushundi.

-Menimcha sen turishing mumkin emas edi-uning ortidan tanish ovoz keldi. Keyt ko'zlarida yosh bilan o'sha tomonga qaradi. Otasi Sparda qo'lida o'tinlar bilan qiziga jilmayib qarab turardi. Keyt tezda borib uni quchoqlab oldi.

-Xozir bug'ib qo'yasan-dedi Sparda zo'rg'a. Keyin esa Keyt uni qo'yib yubordi. Ular ichkariga kirishdi. Sparda bitta kiykni xam ovlab kelgandi. Ular olov yoqishib kiykni pishirib yeyishdi. Keyin esa Keyt barchasini eslagan bo'lsa xam otasining unga nimalar deganini eslay olmadi.

-Dada-dedi otasiga yuzlanib,u xali xam otasi yonida ekaniga ishona olmayotgandi-Oyim bilan qanday qilib tanishgansizlar-dedi qiziqib.

-Uzun xikoya-dedi Sparda devorga suyanib-Agar tun xam uzoq bo'lishini xisobga olsak aytib bera qolay-dedi suvdan xo'plab olib-Qachonki men Mundoga xiyonat qilishimdan oldin o'sha olamga borganman.Shunchaki o'sha olamni o'rganish uchun.Mundo barcha olamlarga xukmron bo'lishni istardi.Tunda aylanib yurganimda esa bir guruhni ko'rib qoldim.Keyin esa berkinib ularni kuzata boshladim.Ularni kimligini bilgan bo'lsang kerak.Keyinchalik esa ular bir kichik qurollangan guruh bilan jangga kirishdi.Ular kuchli edi,ammo raqib tomon xam qolishmasdi.Oyingni boshqa bir jangchi to'dadan ajratib



oldi.Uni boshi berk ko'chaga siqb olib borishdi.O'sha paytlari oying uquvsizroq edi.Uni o'ldirishmoqchi bo'lganida esa men uni qutqarib qoldim.

-Oyim sizga tezda rahmat aytganmi?-deb qiziqdi Keyt,otasining xikoyasini eshitar ekan

-Oyinga-deb Sparda kulib yubordi-Oying xech qachon rahmat aytmagan.Shunchaki o'rnidan turdi va ketib qoldi.Ammo men uning yuzini ko'rishga ulgurgandim.Yuragimda nimadir qo'zg'algandek bo'lgandi.Keyin esa buni Rebilionga aytdim.U esa meni qaytarmoqchi bo'ldi.Ammo akasining rayiga qarshi borolmadi.BU olamga yana qaytdim.Qaytganimda esa ular sen topgan darvozani boshqasini topishgandi.Men oyingni kuzata

boshladim.U esa payqab qoldi.Tor ko'chada meni ushlab oldi.

-Nima kerak?-deb bo'ynimga bilagidagi pichog'ini niqtadi.

-Chiroyli ekansiz!-meni birinchi aytgan gapim shu bo'ldi.U esa menga jinniga qaragandek qarab turardi.Ammo shu paytda iblislar xujumga o'tib qoldi.Men esa uni oldida kimligimni yashiraman degandim.Ammo nailoj-deb jimib qoldi-Xujumga o'tdim.Ularni barini o'ldirdim.Keyin esa oyingni ortidan yurib sevgisini qozonish uchun xarakat qildim.Oxir oqibat qaysarligimga tan berdi-deb kulib jimib qoldi.

-Unda nega u yerlardan ketdingiz?-dedi Keyt qiziqib

-BUnga ikki sabab bor-dedi yana davom etib-Birinchisi aynan shu olamga(bizni olam)xujum boshlamoqchiligi,keyin esa

vampirlar olamida paydo bo'lgan men xaqimdagi mish-mishlar va obro'ga o'ch bo'lgan ritsarlar meni o'ldirish uchun qilgan xarakatlari.Uyog'ini o'zing bilasan-dedi ko'zlarini yumib.

-Ammo yerda-deyishi bilan Sparda tezda javob qaytardi.

-Umuman olganda men oyingni jonidan to'ydirgandim-degan gapi kifoya qildi-Barcha narsa o'tkinchi ekan-deb jimib qolishdi.SHunday qilib uyquga ketishdi.Ertasiga Keyt o'rnidan turganida esa otasini o'z qilichi bilan ko'rdi.

-Nima qilayapsiz?-dedi uning xarakatlarini kuzatar ekan.

-Bu qilichning nomi Shiratori-dedi otasi qilich bilan mashqlar ko'rsatar ekan-Men uni yasayotganlarida unga chaqmoq ajdarining yuragini xam singdirganman.Natijani o'zing bilasan-

deb Sparda xam o'z atrofida chaqmoq paydo qildi. Tashqaridan qandaydir ovozlar eshitila boshladi. Sparda va Keyt buni payqashdi.

-Menimcha meni ketish paytim bo'ldi-dedi Sparda Shiratori yordamida portal ochib-Albatta uchrashamiz-dedi Shiratorini Keytga qarab uloqtirar ekan. Keyin esa qiziga bir tabassum sovg'a qilib portalga kirib ketdi.

-Dada-deb qoldi Keyt. Birozdan so'ng esa ichkariga ikki aka-ukalar kirib kelishdi.

-Aniq shu yermi?-dedi ulardan biri nolib

-Sabr qil-dedi ikkinchi urushib. Keyt ularni kimligini payqadi. Tezda ularga peshvoz chiqmoqchi bo'ldi.

-Dante, Vergiliy-deb baqirdi yugurib borar ekan. Bir necha soniyada ularning

qarshisidan chiqdi. Vergiliy Yamato bilan uni o'ldirib qo'yishiga oz qoldi.

-Salom Vergiliy-dedi Yamatoni qo'llari bilan chetga surib-Seni xam ko'rganimdan xursandman Dante-deb Dantega qarab jilmayib qo'ydi

-Key-yuzida xayronlik ifodasi aks etgan Vergiliy zo'rg'a gapirdi-Bu yerda nima qilayapsan?

-Men urushda yaralandim-dedi Keyt tashqariga chiqish uchun yurib ketib

-Nima?-dedi Dante tushunmay

-Yo'lda gapirib beraman-deb g'or og'ziga yo'l oldi.Ular bir necha qadamlar bilan g'ordan chiqib olishdi.Keyt esa ularga barchasini gapirib berdi.

-Demak bazmga bizni aytmabsanda-dedi Dante o'zidan xafa bo'lgan odamni yasab olib

-Endi aytishga kelgandim-dedi Keyt uni turtib qo'yib-Umuman olganda yerda xam ishlaringiz ko'p-dedi Keyt portal ochishga shaylanib-Aytganicha bugun qaysi kun?

-14-aprel-javobni eshitib Keyt shokka tushib qoldi.

-Bir xafra uxladimmi?-dedi o'ziga ishonmay-U yerda nimalar bo'layapti-deb tezda portal ochdi.Ammo kuchi kam bo'lgani uchun portal tezda yopilib qoldi.

-Key-deb Vergiliy uni yiqilayotgan joyida tutib qoldi-Menimcha xali xam kuchga to'lmagansan-deb uning qornidagi qonga ko'zi tushdi.

-Menimcha u yana dam olishi kerak-dedi Dante yaraga qarab qo'yib-Yo'qsa yarang ni ushlab turgan narsa yo'qoladi.

-Yarangni kim davoladi-deganidan so'ng Keyt ularga Sparda xaqida aytib berdi. Vergiliy va Dante bunga boshida ishonishmadi. Ammo Keytni aldamayotganiga ishonch xosil qilishdi. Keyin esa uning qonida faqatgina ularning otasi biladigan dori borligini Vergiliy keyinroq aniqladi. Keyt dam olgach yo'lga tushishi kerakligi xaqida gapiraverganidan so'ng aka-ukalar rozi bo'lishdi.

-faqat bir shart bilan-dedi Vergiliy jiddiy-  
Biz xam boramiz

-Menimcha boshqa ilojim yo'q-dedi Keyt yo'lga tushishga shaylanib. Keyt portalni o'sha yalanglikka yaqin joyda ochdi. Ular chiqib kelishgach esa manzarani ko'rib Keyt ukalari bilan kelganiga xursand bo'ldi. Chunki katta iblislar qo'shini deyarli g'alaba

qozonishayotgandi.Boshqa tomonda esa Mundo Aleks,Kolin,Sara va Mira bilan kuashishayotgandi.

-Aleks-dedi Keyt unga qarab

-Boraver-dedi Vergiliy Yamatoni qinidan olib-Biz qo'shin bilan shug'ullanamiz-deb qo'shin tomonga qanotlarini paydo qilib uchib ketdi.

-Doimo birinchi bo'lishni yoqtiradi-dedi Dante uning ortidan qarab qolib-Ammo men yo'l qo'ymayman-deb qo'lida qilichini paydo qilib u xam iblisga aylandi va uchib ketdi.

-Endi etiborimni ularga qaratsam xam bo'ladi-dedi Keyt Mundoga qarab.Uning qarshisida do'stlari turardi.Tezda ularning ortida paydo bo'ldi.Uning qulog'iga Mundoning gaplari eshitildi.



-endi o'ldim deyaveringlar-dedi Mundo  
tabassum qilib-Sizlarni pashsha  
o'ldirgandek o'ldiraman-dedi nayzasini  
qo'liga olib-Xuddi Qora Burgutni  
o'ldirganim kabi...-demoqchi bo'lganida  
Aleksning ortidan eshitilgan ovoz ularni  
xayron qoldirdi

-O'zingni xammadan yuqori olish bu  
deyarli mag'lubiyat-deb Keyt qilichini  
yelkasiga qo'yib chiqib keldi-Keyin meni  
sen emas,Rebillion o'ldirmoqchi  
bo'lgandi-deb unga jaxl bilan qarab  
turardi.

-Keyt-dedi Aleks ko'zlariga  
ishonmay.Keyt esa ularning oldiga  
sakrab tushdi.Aleks xali xam u oldida  
turganiga ishonmasdi.

-Salom Aleks-dedi uni quchib qo'yib-  
Men qaytdim.

-Qanday qilib-deb baqirib Mundo shunday ajoyib lahzani beliga tepdi.

-Oddiy-dedi Keyt oldinga chiqib-Meni ukalarim bor-deb qo'shinlari jang qilayotgan tomonga ishora qildi-Ularda esa bir necha ming iblislarni kuchi bor-deb o'sha tomondan ko'zini uzmay turardi.Qo'shinlar endi xujumga o'tmoqchi bo'lganida esa osmonda ikki ko'k va qizil rangdagi ikki iblis tushib keldi.Keyin esa orada katta jang boshlandi.Oldi safda qirol Edmund xam jang qilmoqda edi.

-Menda zaxira qo'shin xam bor-deb tepalikdagi iblisga ishora qildi.Tepalikda qo'shin chiqib keldi.

-Lanati-dedi Keyt buni kutmagan edi.Mundo ularga qarab tirjayib turardi.

-Umuman olganda bizda xam qo'shin bor-degan ovozni eshitgandan so'ng esa

Mundoning yuzidagi tabassumdan asar xam qolmadi.

-Nahotki-dedi ortiga o'girilmay-Nahotki sen xali xam tiriksan,SPARDA-deb ortiga o'girilishga jurat etdi.Uning ortida esa bo'yi tengi keladigan boshqa iblis turardi.Boshidan shohlari buralib xuddi xaqiqiy iblisnikidek o'sib chiqqan,atrofida esa qizil olov aylanayotgan Sparda qo'liga katta qilichini ushlab turardi.Boshqa iblislardan Mundo va Sparda ancha uzunroq edilari.

-Nahotki u qaytdi-dedi Anna uzoqdan Spardani ko'rib

-Key aldamabdi-dedi Dante otasini ko'rib-Dadajon-dedi kulib qo'yib

-Keyinroq salomlashamiz-dedi Vergiliy jangdan bo'shamay.

Spardaning ortidan boshqa iblislar qo'shini chiqib keldi. Ularning soni Mundoning qo'shini sonidan kam emasdi.

-Jangga-dedi Sparda askarlariga buyuruq berib. Quvonarlisi uning qo'shiniga Rebilion qomondonlik qilayotgandi.

-Vanihoyat men kutgan kun keldi-dedi Rebilion qarshisidagi qo'shinga xujum qilib. Ularning orasidagi jangda Rebilion qon to'kishni boshlab berdi.

-Men yutqazmayman-dedi Mundo nayzasi bilan Spardaga xujum qilib. Sparda esa chap berdi va uning yuziga musht urdi. Mundo yiqilayotib uning qorniga nayzasini suqib oldi. Sparda egilib qoldi. Mundo endi uni o'ldirmoqchi bo'lganida esa Keyt bunga yo'l qo'ymadi.

-Tushingni borib suvga ayt-dedi uning zarbasini qaytarar ekan.Aleks va Kolin xam qarab o'tirmay xujumga o'tishdi.Aleks jahannam olovi bilan,Kolin esa arradek tishlari bilan xujumga o'tdi.Ammo Mundo ularni siltab tashladi.Aleksning olovini esa bir xarakat bilan o'chirdi.Mira unga bir zarba berdi.Bu esa Mundoning tanasida kichkinagina jarohatni qoldirdi.

-BU men uchun xech narsa emas-dedi jarohatga qarab qo'yib.Ammo Mira xech narsa demay qilichida to'lqin chiqarib uni Mundoga yubordi.O'sha kichkina jarohat esa kattalashib undan qon otilib chiqib ketdi.

-Bo'lishi mumkin emas-dedi jarohatiga qarab.

-Sharpaning kuchi shunday-dedi Sparda o'rnidan turar ekan-Uning qilichining

nomi Sharpa, o'zi paydo qilgan jarohatni shunday kattalashtiradiki, men uni tortib olaman deb o'lishimga oz qolgan-deb Mundoga xujumga o'tdi. Mundo yarador bo'lgani uchun va boshqalar unga qimirlashga berishmayotgani uchun Spardaning zarbasiga chap bera olmadi. Sparda uning ko'ksiga qilichini sanchib oldi. Mundo yiqilayotganda Keytni bosib qolishiga oz qoldi. Agar Aleks uni qutqarmaganida bosib xam qolar edi. Aleks uni qo'llarida ko'tarib turar edi. Ularning ko'zlari esa bir-birlari bilan to'qnashishgan edi.

-Yoshlar sevgi muhabbar keyin-dedi Kolin ularga qarab baqirib.

Dante bilan vergiliyning paydo bo'lgani vampirlarning foydasiga ishladi. G'alaba ular tomonga o'ta boshladi. Boshqa tomonda esa Rebilion boshchiligadi

qo'shin allaqachon Mundoning qo'shinini tor-mor keltirgandi. Mundo atrofga qarar ekan, yutqazganini tushundi. U barchasini tushundi ammo mardonavor jangda o'lishni istadi. Nayzasini ushlab o'rnidan turdi va Spardaga qarab xujumga o'tdi. Ammo jangni Sparda emas Keyt yakunladi. Keyt uning ko'ksiga qilichini suqib olib chaqmoq xosil qildi va Mundoning tanasini kuydirib tashladi. Uning tanasi yo'q bo'lib ketdi. Barcha "g'alaba" deb qichqirishardi. Xamma xursand edi. Sparda esa odamga aylandi va o'tirib qoldi. Uning ko'rinishidan barcha uni 35 yoshli erkak derdi. Ammo aniq yoshini Spardaning o'zi xam bilmasdi.

-Voy-deb belini ushlab qoldi Sparda. Ammo uni Dante va Vergiliy suyab qolishdi.

-Biz bilan ko'rishmasdan ketish yo'q  
Dadajon-dedi Dante unga kulib qarab

-Salom Dada-dedi Vergiliy sovuqqini  
qilib. Ammo jilmayishidan uning  
xursandligini ko'rish mumkin edi.

-Salom o'g'illarim-dedi Sparda ikkisiga  
to'yib qarab. Ufqdan esa quyosh bosh  
ko'tarayotgandi. Yangi kun boshlandi. BU  
yangi kunni esa kimlardir ko'ra  
olmadi. Ular aynan shu yangi kun uchun  
jon fido qilishgandi.

Qasrning zalida Aleks uyoqdan bu yoqqa  
yurib asabiylashardi. Bashang  
kiyingan, uni bu kiyimda ko'rgan barcha  
xaqiqiy shahzoda derdi. Qo'lida esa  
qutilar. Asabiylashganida esa terlab  
ketgandi.

-Xey, bunchalik emasda-dedi Kolin uni  
tinchlantirishga urinib-O'zingni bos-deb  
uning terlarini aritshga urindi.



-O'zing mendan kam  
asabiylashmayapsanku,yana  
uylanayotgan men-dedi Aleks unga kulib  
qarab-Yoki-deb kulishi bilan Kolin tezda  
javob qaytardi.

-Umuman-dedi Kolin unga jiddiy  
qarab.Aleks esa tezda jim bo'ldi.Eshiklar  
ochilib ichkariga kirib borishdi.Ichkarida  
esa qirol Edmund,qirolicha Anna va  
afsonaviy qora ritsar Sparda  
o'tirishardi.Sparda bu yerda shunchaki  
mehmon edi.Aleks va Kolinning  
qatorida Viktor xam ketardi.U xam  
jangda katta matonat  
ko'rsatgandi.Barchaning ruhiyati  
tushganda u barcha olg'a  
boshlagandi.Ularning uchchovi xam  
asabiylashishayotgandi.

-Salomatlik tilaymiz-deb ular kelib tazim  
qilib qo'yishdi.

-Salomatlik-dedi Sparda boshqalar bir xil oxangda-Xo'sh xush kelibsizlar-dedi Edmund ularga kulib qarab

-Bizni bu yerga kelishimizdan maqsad qizingiz Keytni qo'lini so'rab keldik-dedi Aleks bir qadam oldinga chiqib.

-Nahotki-dedi Sparda o'rnidan turib.-Uni sevasanmi?-deb uning ko'zlariga tikildi.

-Albatta-dedi Aleks o'zida ishonch topib

-Senga ishonsam bo'ladimi?-dedi uning ko'zlariga teshib yuboruvchi nigohini qadab.

-Albatta-dedi Aleks tutilmay.

-Unda men rozi,senchi Anna-dedi Sparda unga yuzlanib.Anna xam bosh silkib qo'ydi.

-Qirol Edmund-dedi Sparda unga qarab-U xam sizning o'gay qizingiz,xar xolda

o'zingiz qizim deb tan olgan ekansiz-  
dedi jilmayishga urinib

-Men xam roziman-qisqa va lo'nda javob  
berdi Edmund.Sparda paydo bo'lgandan  
beri ikkisi xaqiqiy do'stlarga  
aylanishgandi.Bir kuni esa ikkisi ichib  
olib mushtlashishga xam ulgurishibdi.

-Shunday qilib yaqinda to'y-dedi Sparda  
kulib-Qolganlari xam aytadigan gapi bor  
menimcha-deb Sparda boshqalarga xam  
kulib qaradi.

-Men xam qizlaringizdan birining qo'lini  
so'rab kelganim-deb oldinga Viktor va  
Kolin bir vaqtda chiqishdi.

Yorug' kun.Qasr zamonaviy qilib  
bezatilgan.BU yerda to'y bo'layotganini  
bilish mumkin edi.Bugun bir emas,3ta  
juftlik bir birlari bilan  
topishishadi.Tepada Keyt o'z xonasida  
dugonalari bilan

tayyorlanishayotgandi.Ularning ikkisi xam oq kelin ko'ylakda oynaga qarab turishardi.

-To'ylarimiz bir kunda bo'ladi deb o'ylamagandim-dedi qo'lida gul ushlab turgan Keyt.

-Men xam-dedi Sara yig'lab yuboray deb

-Menimcha borishimiz kerak-dedi Mira eshik oldida turgan Dante,Vergiliy va Spardani ko'rib.Sparda Keytni,Dante esa Sarani,Vergiliy esa Mirani mehrob oldigacha kuzatib qo'yishadigan bo'lishdi.Ular mehmonlari to'la zaldan yurib borisharkan barchaning ko'zi ularda edi.Dante va boshqalar bashang kiyinishgandi.Ular qora kamzul va shunga yarasha yopinchiq taqib olishgandi.Sparda Keytni Aleksga,Dante Sarani Kolinga,Vergiliy esa Mirani VIktorga topshira turib unga gap otdi.

-Singlimni asray olasanmi?-jiddiy ko'zlariga tikilib Viktorga savol berdi.Bu gap esa Miraga yoqib tushdi.

-Albatta ser-dedi Viktor qo'rqqanini bildirmay

-Yaxshi-dedi unga yaqinroq borib-Agar ko'zidan bir tomchi yosh oqsa,boshingni uzib olaman-dedi unga pichirlab.BU gapni xatto vampirlar xam eshita olishmadi.Viktorni esa qaltiroq bosdi.Vergiliy unga kulib qarab uzoqlashdi.U borib otasi va ukasining yoniga turdi.Nigoh o'qildi va ular oila qurishdi.

-BUni ko'raman deb o'ylamagandim-dedi Sparda ko'zida yosh bilan.Bir necha yillardan so'ng esa ular farzandli bo'lishdi.Keyt va Aleks farzandini Limfadora deb nomlashdi.U xam bir qancha sarguzashtlarni boshdan

kechirishini kimlardir bashorat qildi.Sara  
va Kolin esa farzandini Dante sharafiga  
Dante deb nomlashdi.Mira bilan Viktor  
esa Vergiliy deb nomlashdi.Ularning  
sarguzashtlarini xikoya qiladigan  
bo'lsak,buyog'I endi boshqa xikoya  
TAMOM.....

Etiboringiz uchun rahmat

Muallif: @Rameo\_11;